QASHQADARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI



# QASHQADARYO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI



## 2022- YIL
## YANVAR-AVGUST



**2022- yilning yanvar-avgust oylarida, Qashqadaryo viloyatida jami 4709,1 mlrd. so‘mlik qurilish ishlari bajarilib, o‘sish sur’ati 2021- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan 108,0 % ni tashkil etdi.**

## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi bo‘yicha shakllanadi.



# 2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra qurilish ishlari bo‘yicha faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar, *birlikda*

### Yillar kesimida soni




**2321** — Bino va inshootlar qurish

**345** — Fuqarolik obyektlarini qurish

**764** — Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

### Hududlar kesimida




Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o‘sishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2019- yil bilan solishtirganda o‘sish sur’ati 120,3 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo‘nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo‘nalishi 67,7 foiz ulushi tashkil etib, o‘sish sur’ati 2021- yilga nisbatan 0,7 foizga oshgan;

fuqarolik obyektlarini qurish yo‘nalishi 10,1 foiz ulushi tashkil etib, o‘sish sur’ati 2021- yilga nisbatan 17,3 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo‘nalishi 22,3 foiz ulushni tashkil etib, 0,9 foizga kamaygan.

# Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

| | Holatiga : | | o'tgan yiliga nisbatan, % da |
|---|---|---|---|
| | 01.09.2021- y. | 01.09.2022- y. | |
| Qashqadaryo viloyati | 3459 | 3430 | 99,2 |
| *shaharlar:* | | | |
| Qarshi sh. | 887 | 874 | 98,5 |
| Shahrisabz sh. | 144 | 148 | 102,8 |
| *tumanlar:* | | | |
| G'uzor | 151 | 139 | 92,1 |
| Dehqonobod | 165 | 142 | 86,1 |
| Qamashi | 185 | 166 | 89,7 |
| Qarshi | 409 | 398 | 97,3 |
| Koson | 300 | 318 | 106,0 |
| Kitob | 123 | 132 | 107,3 |
| Mirishkor | 81 | 98 | 121,0 |
| Muborak | 190 | 173 | 91,1 |
| Nishon | 119 | 123 | 103,4 |
| Kasbi | 163 | 156 | 95,7 |
| Chiroqchi | 219 | 224 | 84,9 |
| Shahrisabz | 111 | 123 | 110,8 |
| Yakkabog' | 212 | 216 | 101,9 |



# 2022- yil 1- sentabr holatiga ko‘ra Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, *% da*

Qarshi sh. (25,5)



Qarshi (11,6)



Koson (9,3)





# Qurilish ishlari
# 2022- yil yanvar-avgust oylari uchun

| | Qurilish ishlari, mlrd. so‘m | Shu jumladan: | | |
|---|---|---|---|---|
| | | Yirik qurilish tashkilotlari | Kichik va mikrofirmalar | Norasmiy sektor |
| **Qashqadaryo viloyati** | **4071,2** | **782,4** | **2399,1** | **889,7** |
| ***shaharlar:*** | | | | |
| **Qarshi sh.** | 1097,0 | 383,2 | 615,8 | 97,9 |
| **Shahrisabz sh.** | **188,8** | **49,1** | **116,4** | **23,3** |
| ***tumanlar:*** | | | | |
| **G‘uzor** | **380,8** | **61,2** | **223,5** | **96,2** |
| **Dehqonobod** | 94,5 | 0,0 | 23,3 | 71,2 |
| **Qamashi** | 102,5 | 0,0 | 67,0 | 35,4 |
| **Qarshi** | 315,0 | 17,4 | 258,2 | 39,5 |
| **Koson** | **292,3** | **19,9** | **200,8** | **71,5** |
| **Kitob** | 308,0 | 21,3 | 218,1 | 68,6 |
| **Mirishkor** | **78,6** | **0,0** | **47,8** | **30,7** |
| **Muborak** | 211,4 | 64,7 | 100,2 | 46,5 |
| **Nishon** | **160,4** | **3,9** | **111,5** | **45,0** |
| **Kasbi** | 156,7 | 2,2 | 87,8 | 66,7 |
| **Chiroqchi** | **389,3** | **151,5** | **117,2** | **120,5** |
| **Shahrisabz** | 134,9 | 0,1 | 94,3 | 40,5 |
| **Yakkabog‘** | **161,0** | **7,9** | **116,9** | **36,2** |

** Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda*



**2022- yilning yanvar-avgust oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 782,4 mlrd. so‘mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2021- yilga nisbatan 99,3 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2021- yildagi ko‘rsatkich darajasidan 1,5 % punktga kamayib, 19,2 % ni tashkil etdi.**

**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta’mirlash, kapital ta’mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.



# Yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari




**MA’LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko‘p ulushi Qarshi shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 35,6 % i yoki 2021- yilga nisbatan 132,3 % ga oshdi), Chiroqchi tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 39,1 % i yoki 2021- yilga nisbatan 205,0 % ga oshdi) va Muborak tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 30,8 % i yoki 2021- yiliga nisbatan 55,4 % ga oshdi) ga to‘g‘ri keldi.

2022- yilning yanvar-avgust oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 57,9 % i to‘g‘ri kelib, 2021- yil ko‘rsatkichiga nisbatan 0,1 % punktga ko‘paydi. Shuningdek, ular hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2021- yilga nisbatan 107,3 % ni tashkil etgan holda 2727,4 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi.




**Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, % da**

**57,9**
2022- yil yanvar-avgust

**57,8**
2021- yil yanvar-avgust



**MA’LUMOT UCHUN:** *joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko‘rsatkichi Qarshi shahri (692,7 mlrd. so‘m yoki umumiy hajmga nisbatan 25,4 %), Qarshi tumani (295,2 mlrd. so‘m yoki 10,8 %), G‘uzor tumani (256,5 mlrd. so‘m yoki 9,4 %) ga to‘g‘ri keldi.*

# Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

**Norasmiy sektor hissasiga to‘g‘ri kelgan qurilish ishlari ulushi 22,6 % ni tashkil etdi yoki 1066,1 mlrd. so‘m miqdorida qayd etildi. 2021- yilga nisbatan 116,0 % ni tashkil etdi.**




## Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo‘lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **237,4** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **4471,6** mlrd. so‘m qurilish ishlari bajarildi. Ularning respublikadagi ulushi mos ravishda **5,0 %** va **95,0 %** ni tashkil etdi.



# Mulkchilik shakllari bo‘yicha bajarilgan qurilish ishlari 2022- yil yanvar-avgust oylarida

| | Qurilish ishlari, mlrd so‘m | Davlat mulki | | Nodavlat mulk | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | mlrd. so‘m | ulushi, % da | mlrd.so‘m | ulushi,% da |
| Qashqadaryo viloyati | **4709,1** | **237,4** | **5,8** | **4471,7** | **94,2** |
| ***shaharlar:*** | | | | | |
| **Qarshi sh.** | 1255,2 | 237,4 | 18,9 | 1017,8 | 81,1 |
| **Shahrisabz sh.** | 211,1 | | | 211,1 | 100 |
| ***tumanlar:*** | | | | | |
| **G‘uzor** | 443,4 | | | 443,4 | 100 |
| **Dehqonobod** | 109,9 | | | 109,9 | 100 |
| **Qamashi** | 119,7 | | | 119,7 | 100 |
| **Qarshi** | 363,3 | | | 363,3 | 100 |
| **Koson** | 339,8 | | | 339,8 | 100 |
| **Kitob** | 360,8 | | | 360,8 | 100 |
| **Mirishkor** | 92,7 | | | 92,7 | 100 |
| **Muborak** | 239,0 | | | 239,0 | 100 |
| **Nishon** | 189,5 | | | 189,5 | 100 |
| **Kasbi** | 183,3 | | | 183,3 | 100 |
| **Chiroqchi** | 455,9 | | | 455,9 | 100 |
| **Shahrisabz t.** | 156,9 | | | 156,9 | 100 |
| **Yakkabog‘** | 188,8 | | | 188,8 | 100 |



# Umumiy hajmdan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish, texnik qayta qurollantirish ishlari ulushi 2022- yil yanvar-avgust oylarida

Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **60,6** % i yoki **2855,9** mlrd. so'm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**16,4 %**

Yirik qurilish tashkilotlari bo'yicha yangi qurilish hisobidan **469,7** mlrd. so'mlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **16,4 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxona va mikrofirmalar bo'yicha yangi qurilish hisobidan **1457,7** mlrd. so'm yoki jami kichik korxona va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **51,0 %** ni tashkil etdi.

**51,0 %**

**32,5 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **928,4** mlrd. so'm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **32,5 %** ni tashkil etdi.

# Hududlar kesimida qurilish ishlari 2022- yil yanvar-avgust oylarida

| | Qurilish ishlari, mlrd. so‘m | O‘sish sur’ati, % da | Umumiy hajmga nisbatan,% da |
|---|---|---|---|
| Qashqadaryo viloyati | 4709,1 | 108,0 | 100 |
| *shaharlar:* | | | |
| Qarshi sh. | 1255,2 | 119,1 | 26,7 |
| Shahrisabz sh. | 211,1 | 88,7 | 4,5 |
| *tumanlar:* | | | |
| G‘uzor | 443,4 | 88,8 | 9,4 |
| Dehqonobod | 109,9 | 105,4 | 2,3 |
| Qamashi | 119,7 | 111,4 | 2,5 |
| Qarshi | 363,3 | 108,3 | 7,7 |
| Koson | 339,8 | 104,4 | 7,2 |
| Kitob | 360,6 | 114,9 | 7,7 |
| Mirishkor | 92,7 | 130,9 | 2,0 |
| Muborak | 239,0 | 85,6 | 5,1 |
| Nishon | 189,5 | 109,3 | 4,0 |
| Kasbi | 183,3 | 113,8 | 3,9 |
| Chiroqchi | 455,9 | 129,5 | 9,7 |
| Shahrisabz | 156,9 | 111,1 | 3,3 |
| Yakkabog‘ | 188,8 | 92,9 | 4,0 |

**Hududlar bo‘yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo‘shgan holda*



***Ma’lumot uchun:*** *Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko‘rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.*

# Qashqadaryo viloyatida iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlari

**2021- yil yanvar-avgust**

- **74,1 %** — Bino va inshootlarni qurish
- **15,9 %** — Fuqarolik obyektlarini qurish
- **10,0%** — Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

**100,0 %**

**2022- yil yanvar-avgust**

- **70,2 %** — Bino va inshootlarni qurish
- **19,4 %** — Fuqarolik obyektlarini qurish
- **10,4 %** — Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

***Ma’lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolar qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.*

*ulushi % da*

5,4

2021- yil
yanvar-avgust

7,1

65,7



60,7

28,9

32,2

2022- yil
yanvar-avgust

Yirik qurilish tashkilotlari

Kichik korxona va mikrofirmalar

Norasmiy sektor

Bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 7,1 % ni tashkil etib, 2021- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 1,7 % punktga ko‘paydi.

Ushbu faoliyat turida kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelgan ulush 2021- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 5,0 % punktga kamayib, 60,7 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2021- yildagi ko‘rsatkichga nisbatan 3,3 % punktga ko‘payib, 32,2 % ni tashkil etdi.

# Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha qurilish ishlari

**Fuqarolik obyektlarini qurish bo‘yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 19,1 % ni tashkil etdi va 2021- yilga nisbatan 15,6 % punktga kamaydi.**

**Shuningdek, kichik korxona va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 80,9 % (15,6 % punktga ko‘paydi).**

***ulushi % da***




Yirik qurilish tashkilotlari

Kichik korxona va mikrofirmalar

Norasmiy sektor

2021- yil yanvar-avgust

2022- yil yanvar-avgust

# Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2021- yilga nisbatan 9,8 % punktga ko‘paydi va 61,2 % ni tashkil etdi. Qolgan 38,8 % i kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri kelib, 2021- yilga nisbatan 9,8 % punktga kamaydi.




*Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi*

*Aloqa telefoni: (75) 221 32 47*